

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ ҲАҚИДА АҲДЭШТИРИЛГАН. АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

<b>1. Гонашвили А.С.</b> К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРАЗИЙСКОГО НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА: ОПЫТ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ МПА ЕврАзЭС.....	5
<b>2. Sodiqova Shohida Marxaboevna</b> ZAMONAVIY IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI, SHAKLLARI VA SUBYEKTLARI.....	15
<b>3. Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich</b> DIN SOTSIOLOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI AYRIM MULOHAZALAR.....	25
<b>4. Abduraxmonova Manzura</b> MAKTABLARDA IJTIMOIIY ISH FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	34
<b>5. Sodiqova Shohida Marxaboevna, Tagieva Gulsum Gafurovna</b> “IJTIMOIIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI.....	40
<b>6. Kayumov Kaxramon</b> O‘Z KASBIGA SADOQAT SOTSIAL FENOMEN SIFATIDA.....	46
<b>7. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI.....	52
<b>8. Ахмедова Раъно</b> ИНТЕРНЕТ КАК ПРОСТРАНСТВО МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	59
<b>9. Masharipov Baxtiyar</b> SIFATIIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA “SHAHAR” IJTIMOIIY INFRATUZILMA MAKONINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TADQIQI.....	68
<b>10. Рашидова Шахноза</b> МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	77
<b>11. То‘рахо‘jaeva Ra’no</b> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	84
<b>12. Zaretdinova Nesibeli</b> QORAQALPOG’ISTONDAGI IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH DOLZARBLIGI.....	91


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Masharipov Baxtiyar,**

О‘zbekiston Milliy universiteti,  
Sotsiologiya kafedrası tadqiqotchisi  
e-mail: brmasharipov@gmail.com

### СИФАТИЙ СОТСИОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРДА “ШАХАР” ИЖТИМОЙ ИНФРАТУЗИЛМА МАКОНИНING ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДАГИ ТАДҚИҚИ

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15868356>

#### ANNOTATSIYA

Muallif maqolada muammoni yoritish uchun bixeviorizm nazariyasiga asoslanadi. Mavzu bevosita shahar va shahar ijtimoiy infratuzilmasiga bog‘liq olingan bo‘lsa-da, unda zamonaviy shahar matnlarining o‘zagini tashkil etuvchi oilaviy munosabatlarni sotsial tasavvurlar yondashuvi orqali ko‘rsatib beradi. Maqolada o‘zbek shaharsozligi, xususan poytaxt aholisi kundalik turmun tarzidagi oilaviy munosabatlar keng jamoatchilik fikrida qanday aks etishini sifatiy sotsiologik tadqiqotlar natijalari yordamida ilmiy bayon etilishi bilan farq qiladi. Muallif o‘zi tomonidan ilgari surgan ilmiy gipotezalar asosida bugungi shahar tizimidagi oilaviy munosabatlarning u yoki bu holatdagi jihatlarini “ijtimoiy drama” tarzida ifodalaydi. Muammoni o‘rganar ekan, tadqiqotchi shahar ijtimoiy hayotidagi oilaviy munosabatlar uchun “Globalizatsiya-internet-jamiyat-davlat-oila-shaxs” formulasini ilgari suradi. Ushbu gipoteza orqali muallif o‘zining nazariy xulosalari bayonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** shahar infratuzilmasi, oila, oilaviy munosabatlar, sifatiy tadqiqotlar, ijtimoiy fikr, sotsial tasavvur, ilmiy gipoteza, axborotlar asri, innovatsiyalar.

**Машарипов Бахтияр,**

Национальный университет Узбекистана  
исследователь кафедры социологии  
e-mail: brmasharipov@gmail.com

### ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОСТРАНСТВА СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ “ГОРОД” В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ В КАЧЕСТВЕННЫХ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

#### АННОТАЦИЯ

В статье автор обращается к теории бихевиоризма, чтобы пролить свет на проблему. Хотя тема напрямую связана с городом и социальной инфраструктурой города, она показывает семейные отношения, составляющие ядро современных городских текстов, посредством подхода социального воображения. В статье узбекский урбанизм, в частности повседневная жизнь столичных семейных отношений, отражена в представлении широкой общественности с помощью результатов качественного социологического исследования. Основываясь на научных гипотезах, выдвинутых автором, он выражает те или иные аспекты семейных

отношений в современной городской системе в форме «социальной драмы». Изучая проблему, исследователь выдвигает формулу «Глобализация-Интернет-общество-государство-семья-индивид» для семейных отношений в городской общественной жизни. Через эту гипотезу автор излагает свои теоретические выводы.

**Ключевые слова:** городская инфраструктура, семья, семейные отношения, качественные исследования, социальная мысль, социальное воображение, научная гипотеза, информационный век, инновации.

**Masharipov Bakhtiyar,**  
National University of Uzbekistan  
researcher at the Department of Sociology  
e-mail: brmasharipov@gmail.com

## RESEARCH OF THE SPACE OF SOCIAL INFRASTRUCTURE “CITY” IN FAMILY RELATIONS IN QUALITATIVE SOCIOLOGICAL RESEARCH

### ABSTRACT

In the article, the author turns to the theory of behaviorism to shed light on the problem. Although the theme is directly related to the city and the social infrastructure of the city, it shows the family relationships that form the core of modern urban texts through a social imagination approach. In the article, Uzbek urbanism, in particular the daily life of metropolitan family relations, is reflected in the perception of the general public using the results of qualitative sociological research. Based on scientific hypotheses put forward by the author, he expresses certain aspects of family relations in the modern urban system in the form of “social drama”. Studying the problem, the researcher puts forward the formula “Globalization-Internet-society-state-family-individual” for family relationships in urban public life. Through this hypothesis, the author presents his theoretical conclusions.

**Key words:** urban infrastructure, family, family relationships, qualitative research, social thought, social imagination, scientific hypothesis, information age, innovation.

### KIRISH

XXI asrda bugungi insoniyat nafaqat axborotlar asrida yashamoqda, balki bilvosita uning vizual bir qismiga aylanib ulgurdi. Axborotlar asri talqini tabiiyki turli soha vakillari tomonidan o‘ziga xos tarzda yoritilishi mumkin. Va unga nisbatan tasavvurlar ham shunga mos ravishda shakllanadi. Ma’lumki, jamoatchilik fikrini o‘rganish sotsiologik tadqiqotlarga tayanish va uning natijalari orqali amalga oshiriladi. Tabiiyki, bu mutahassisdan yuqori kasbiy mahoratni talab etadi. Sotsiologik amaliyot bo‘yicha tegishli bilim va tayyorgarlikka ega bo‘lmagan inson muammoni o‘rganish vaqtida ko‘plab subyektiv nuqsonlarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Shu bilan birga sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish maxsus bilimlarni talab etishi, xususan, nazariy-metodologik dasturning ekspertlar tomonidan qanchalik ilmiy va asosli yozilganligi, maqsad va vazifalarning to‘g‘ri qo‘yilganligi, ilmiy gipotezalarning to‘liq asoslanganligi va reprezentativlikning ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

### METODOLOGIYA

Jamoatchilik fikri shahar tizimida jamiyat tafakkurining sotsial guruhlar, umuman xalqning jamiyat manfaatlarini aks ettiruvchi hodisa va jarayonlarga nisbatan mavjud ijtimoiy munosabatlar asosidagi bog‘liqligi (bahosi)ni aks ettiruvchi hodisa sanaladi. Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot institutlarida, urbanizatsiya jarayonlari, shaharlarning obodonlashtirilishi, aholining ijtimoiy-maishiy talablariga javob beradigan uy-joy qurilishi tarixi, ijtimoiy ahamiyati va zaruratini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shahar infratuzilmasini shallantirishda yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalarini shahar tashqarisida joylashtirish, ko‘p qavatli binolar atrofida saylgohlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda shahar infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholiga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Yangi O‘zbekistonda endilikda poytaxt va

yirik shaharlardagi yangi qurilishlar shahar tashqarisida amalga oshirilishi va daraxtlar kesilishi masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 80-maqsadida (Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish) «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 mln. tup daraxtlar ekish, bunda bahor faslida 125 mln. tup va kuzda 75 mln. tup ko'chat ekishni tashkil etish, ekilgan ko'chatlarni saqlash va parvarishlash tizimini joriy etish, ekilgan ko'chatlarni tashkilotlarga birlashtirish va "daraxtlar reestri"dan ko'chirmalar berish tizimini joriy etish belgilandi [1].

Ijtimoiy hayotda shaharsozlikdagi jamoatchilik fikri insonlardagi o'zaro sotsial munosabatlarga kirishuvning muxim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U ma'lum darajada boshqaruv jarayonlariga ta'sir ko'rsatishi, mavjud tizimning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan infratuzilma bilan bog'liq fikr va qarorlarini shakllantirishi va qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shaharsozlikning rivojlanishi uning infratuzilmasini samarali shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Rivojlangan infratuzilma bois shahar aholisi kundalik hayotida qulaylik va sifat oshib boradi. Infratuzilma (lot. infra - quyida, tagida, structure – qurilma, joylashgan) – tizim faoliyatini ta'minlaydigan o'zaro aloqadorlikdagi xizmat ko'rsatuvchi tuzilma yoki obyektlarning majmui. Ingliz tilida infratuzilma atamasi XX asrning birinchi choragida iste'molga kiritilgan bo'lib, ushbu tushuncha dastlab harbiy kuchlarning harakatlanishini ta'minlovchi qurilmalar majmuini anglatgan [2, – B.14].

Sotsiologik ma'lumotlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u turli xil sotsial guruhlarga birlashgan insonlarning hulqi va tafakkurini u yoki bu darajadagi aniqlik bilan aks ettira oladi. Uning asosiy sifati to'plangan ma'lumotlarni oldinga qo'yilgan maqsadga muvofiqligini ta'minlash bilan bog'liq bo'ladi. Biz ushbu maqolada shahar ijtimoiy infratuzilmasini o'z ilmiy tadqiqot ishimizning ilmiy obyektidan kelib chiqib, sotsiologik tasavvurlar yordamida bevosita oilaviy munosabatlarga asoslangan tahlilini yoritamiz.

Tadqiqot natijalarining sifat darajasini ifodalovchi asosiy xususiyatlar – bu aniqlik, barqarorlik va reprezentativlik bilan ifodalanadi. Sotsiologik ma'lumotlarning aniqlik darajasi o'rganilgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettirish hisobiga tashkillashtiriladi. Barqarorlik esa mavjud ma'lumotning muayyan vaqt davomida o'z foydalilik xususiyatlarini ta'minlashini ifodalaydi. Reprezentativlikda sotsiologik tadqiqotlar orqali olingan natijalarni amaliyotga tadbiiq qilinishi mumkin bo'lgan sohalar qamrab oladi [3, – B.58].

### ASOSIY QISM

XX asrning 60-yillarida ilg'or taraqqiy etgan G'arb sotsiologiya yo'nalishida tadqiqot markazlari xodimlari asta-sekinlik bilan miqdorli tadqiqot usullaridan sifatlisiga o'ta boshladilar. Sotsiologiyada sifatli usul miqdorli tadqiqotlardagi mavjud strategiya va ilmiy farazlardan tubdan farq qiladi. Miqdoriy ko'rsatkichlar yig'indisi makrosotsiologiyaning muntazam barometr o'lchov yig'indisi qilib belgilansa, sifatli tadqiqot usullari mikrosotsiologiyaning muxim masalalarini yoritib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu ilmiy izlanish hamma davrda o'zgacha mantiqqa asoslangan tadqiqotchining nazariy maqsadi, uning qiziqish fokusi, o'rganilayotgan obyektga bo'lgan munosabati, ma'lumotlarni yig'ish jarayoni va ularni izohlab berishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Misol uchun tizimli tahlil nuqtai-nazaridan hozirgi zamon jamiyatining umumiy shart-sharoitlarini turli xildagi sotsial guruhlarni bir xil sharoitda deb olib, so'ngra uni o'rganib tushuntirish mumkin. Jumladan: talabalar, harbiylar, majburan nafaqaga chiqqanlar va boshqalar.

Sifatli sotsiologiya, (uni yana insonparvar, gumanizmga asoslangan sotsiologiya ham deyiladi) nuqtai-nazaridan olganda – u guruhlardagi har bir inson taqdiri bilan bog'liq omillarni o'rganadi. Spesifik sotsial tajriba alohida kechinma va azob-uqubatlardan iborat, ular esa umumlashib uning maxsus "Hayot dunyosi"ni tashkil etadi. Bu dunyo aynan "Maxsus dunyo" sifatida o'rganish obyekti bo'lish mumkin. Ularning o'tmishdagi tajribasi kundalik tashvishlar, kechinmalar faqat bu guruhlarning individual taqdirini, umumiy sotsial ko'rinishda berilgan ijtimoiy-tarixiy holatda o'rganish, tushunish mumkin [4, – B.3-4]. Boshqa tomondan, bu kishilarning tajribasi umumsotsial

tajribaning bir lavhasi bo‘lib hisoblanadi. Bunday tajribalar yig‘indisi jamiyatning sotsial ko‘rinishini tasavvur qilish imkonini beradi. Shunday qilib sifatli tadqiqotning umumiy fokusi diqqatni ayrim holdagi sotsial tajribalarning butun tizimini diqqat markaziga qaratadi.

**Sifatga oid tadqiqotlar** nisbatan chuqurroq ma‘lumot olishga mo‘ljallangan bo‘lib, uni “izohlovchi” deb yuritish mumkin. Sifatli tadqiqotlar insondagi xulqiy o‘zgarishlarning sabablari, kishilarning xotiraga oid fikrlari haqida ma‘lumot olish, ya‘ni “Nima uchun?”, degan savolga javob izlaydi. Sifatga oid tadqiqotlarda “kashf etish”, “yaratuvchanlik” jarayoni amalga oshirilsa, miqdoriy tadqiqotlarda “isbotlash” va “tasdiqlash” mexanizmlari shakllantiriladi.

Ta‘kidlash joizki, har qanday miqdorli va sifatga oid usullar o‘ziga xos tadqiqot maqsadi, vazifasi va o‘rganish obyektlariga ega. Miqdoriy va sifatli tadqiqotlar bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Shu sababli ularni o‘zaro qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi. Ularni kompleks tarzda qo‘llab, umumiy yondashuv asosida kerakli ma‘lumotlar olish imkoni mavjud. Sifatli tadqiqotlarning natijalarini kontent-tahlil usuli shaklida miqdoriy shaklga o‘tkazish mumkin. Miqdoriy tadqiqotlarni tashkillashtirishda asosan ma‘lumot to‘plashning sifatliyga oid texnologiyalari qo‘llaniladi (masalan: farazlar, tugallanmagan gaplar, tuzoq-savollar va h.k.).

**Sifatga oid tadqiqot nima?** Tadqiqot amaliyotida sifatga oid tadqiqot tushunchasi yetarli darajada keng ta‘riflanadi va u har doim ham bir turli ma‘noni ifodalamaydi. Ushbu kitobda sifatga oid tadqiqot, ma‘lumotlar kuzatish, intervyu olish, shaxsiy hujjatlarni (matnli, kam hollarda ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan, ya‘ni foto, video manbalarni) tahlil qilish usuli orqali olingan tadqiqot sifatida ifodalanadi. Ko‘p hollarda bu bir necha turli usullar yordamida to‘plangan dalil-isbotlardir. Dastlabki ma‘lumotlar sirasiga ko‘p hollarda insonlar haqidagi mufassal mulohazalar yordamida, kam hollarda esa imo-ishoralalar, ularning qarashlarini aks ettiruvchi belgilar yordamida ifodalangan fikrlar kiradi. Agar miqdoriy tadqiqotlarda: Qanchalik tez-tez? Qanchalik uzoq muddat davomida? kabi savollarga miqdorni (hisob birliklarida: ko‘p-kam) qayd qiluvchi yetarli darajadagi obyektiv javob olsak, sifatga oid quyidagi savollarga: sizga film qanchalik yoqdi? savolimizga biz *munosabat sifatini* belgilovchi nominal javob olamiz, yoki boshqa so‘zlar bilan aytganda ushbu predmetning individ uchun uning o‘z so‘zlariga ko‘ra qiymatga ega bo‘lgan subyektiv qiymatini, uning ijtimoiy tajribasidan kelib chiqqan holda berilgan javobni olamiz (masalan, film zerikarli, qiziqarli, qiziqarli va h.k.).

Bu kabi ma‘lumotlar matematik jihatdan emas, balki ularning subyektiv ma‘nosini analitik yo‘l bilan ochib berish orqali tahlil qilinadi. Sifatga oid tadqiqotlar avvalambor ijtimoiy amaliyotning, ya‘ni muayyan kishilarning muayyan vaziyatlardagi haqiqiy hayot tajribasining *individual* jihatini o‘rganish uchun amalga oshiriladi. Biroq individual narsani tahlil qilish orqali ijtimoiy guruh, harakatlar yoki ijtimoiy institutlarning muayyan ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutish tabiatiga tegishli bo‘lgan nisbatan keng ko‘lamdagi ijtimoiy muammolar ham tadqiq qilinishi mumkin. Ma‘lumotning qo‘shimcha manbalari sifatida miqdoriy ma‘lumotlar ham xizmat qilishi mumkin (masalan, statistika), biroq ularning tahlili shuningdek analitik yondashuv asosida amalga oshirilishi mumkin [5, – B.52].

**Sifatga oid tadqiqot nimadan tashkil topgan?** Bu avvalambor, turli-tuman insonlar hujjatlaridan yoki “hayot hujjatlari”dan olingan empirik tuzilmalashtirilmagan dalillardir. Ularni intervyu va kuzatuvlarning matnli yozuvlari, shaxsiy va rasmiy hujjatlar, fotosuratlar va hokozolar deb ham ataydilar.

Sifatga oid tadqiqotning ikkinchi tarkibiy qismi tahlil uchun qo‘llaniladigan tahliliy va izohlash jarayonlaridir. Ular ta‘riflar va izohlashlardan tortib kodlashtirish va toifalarga bo‘lishga qadar bo‘lgan turli texnikalarni qamrab oladilar [6, – B.244].

Uchinchi tarkibiy qism darak beruvchi (hikoyaga oid) hisobotdir. Bu kabi hisobotning janri va uslubi tadqiqot maqsadlari va u mo‘ljallangan manzilga bog‘liq ravishda ajratiladi: keng ommadan ilmiy ma‘ruza yoki munozaraga qadar. O‘z uslubiga ko‘ra bu odatda o‘rganilayotganlarning og‘zaki va yozma nutqidan olingan parchalarning ko‘p miqdorda qo‘llanilishi yordamida yozilgan jonli ta‘rifdir. Janriga ko‘ra esa – izoh, mulohaza, gipoteza yoki ijtimoiy hayotning ushbu hodisasi haqidagi nazariyadir [7, – B. 91].

Ya‘ni alohida muammoni o‘rganish jarayoni sifatidagi sifatga oid tadqiqot nafaqat alohida

(sifatga oid) ma'lumotlar mavjudligini talab etadi, balki ularni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishning o'ziga xos usullarini ham taqozo qiladi. Shu sababli quyida sifatga oid tadqiqotni belgilash uchun nisbatan umumlashtirilgan atama, ya'ni *sifat usuli*, yoki turli usullar majmui sifatidagi *sifat usullari* atamasi qo'llaniladi.

**Nima uchun tadqiqotchilar sifatga oid usullarga murojaat qiladilar?** Birinchi sabab – bu o'rganilayotgan muammo tabiatidir. Tabiiyki, ayrim ijtimoiy muammolar sifatga oid yondashuvni talab etadi, masalan, noodatiy individual tajribani (kasallik, diniy e'tiqodlar, giyohvand moddalarni qabul qilish) o'rganishda. Sifat usullari hozirgi davrga qadar noma'lum bo'lgan hodisa tabiatini tushunish uchun, ma'lum muammolarning yangi jihatlarini batafsil ta'riflash yoki ijtimoiy tajribaning ommaviy so'rovlar va miqdoriy ma'lumotlar asosida o'rganish imkoni mavjud bo'lmagan harakatlanish mexanizmlari yoki yashirin subyektiv ma'nolarini ochib berish uchun zarur. Umuman olganda bu ijtimoiy hayotning tor sohasini chuqur o'rganishning nozik vositasidir.

Boshqa sabab – tadqiqotchi va uning muayyan falsafiy moyilligini muvofiq ravishdagi nazariy yo'nalishga yo'naltirishdir, masalan, fenomenologiyaga, yoki nisbatan kengroq bo'lgan zamonaviy sotsiologiyaning gumanistik g'oyalariga yo'naltirilganligidir, bunda ijtimoiy hayotning subyektiv jihati, inson dunyosiga asosiy e'tibor qaratiladi.

**Sifat tadqiqotchisi qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur?** Sifatga oid yondashuv tadqiqotchining o'ziga alohida e'tibor qaratadi. U muammoni o'zini qiziqtirgan obyekt bilan uning uchun tabiiy bo'lgan vaziyatda uzoq muddat davomida bevosita muloqot jarayonida o'rganadi. U shuningdek, bilishning faol "vostasi" bo'lib xizmat qiladi: odamlarning dunyoni his qilishini va hayot mazmunlarini anglaydi; ma'lumot to'plashning, qat'iy sxemalarga rioya qilmagan holda, balki doimiy ravishda haqiqiy vaziyatlardan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqqan holda egiluvchan jarayonini shakllantiradi; turli tabiatga ega bo'lgan dala ma'lumotlarini tahlil qiladi, bu esa yangi syujetlarni olib kiradi va dastlabki qarashlar tizimini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Bu o'rganilayotgan voqelik haqidagi ma'lumot parchalarini boshdan oxirigachakonseptual hissiyotlarga "montaj"ini amalga oshiruvchi amaliyotchidir.

Sifatga oid tahlil jarayonida u ko'p marotaba dastlabki bosqichlarga qaytadi, vaziyatni tanqidiy jihatdan qayta ko'rib chiqadi, bunda u real ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni o'rganadi, vaziyatni nazariy tasavvurlar bilan qiyoslaydi. Buning uchun nazariy va ijtimoiy jihatdan tayorlangan bo'lish, tahliliy masofani mohirlik bilan saqlash, kuzatilayotganni izohlash uchun o'zining avvalgi tajribalari va nazariy bilimlaridan foydalanish zarur.

Sifatni uslubning imkoniyatlarini quyidagi misolda ko'rsatish mumkin. Bu 1899-1910-yillarda polyaklarning ommaviy ravishda Amerikaga migratsiya qilinishi. Shuvaqtda polyaklar Amerikaga ko'chib kelgan migrantlarning to'rtidan bir qismini tashkil etgan. Birgina Chikago shahrida ular 360 ming kishini tashkil etardi.

Bunday qaraganda migrantlar orasida ommaviy so'rovo'tkazish imkoniyati paydo bo'ldi. Biroq, polyak sotsiologlari B.Tomas va M.Znaneskiylar sifatli tadqiqotlar usulini qo'llab, migratsiya jarayonlarini o'rganish uchun polyak migrantlarining AQShga kelguncha va kelgandan so'ng har kungi amaliyotini tahlil qilish bilan shug'ullandilar. Ular bir necha yil davomida polyak muhojirlarining shaxsiy hujjatlarini yig'dilar (764 xat) va qator intervyularni o'tkazdilar. Gazeta ma'lumotlari, polyak arxivlarini Amerika sotsialagentliklarini hujjatlarini migratsiya bo'yicha o'rganib chiqdilar. Ularning strategiyasi o'rganilayotgan fenomenning paydo bo'lishi va rivojlanishiga diqqat e'tiborni qaratish, uning har kungi dehqon hayoti haqida turli xil ma'lumotlarni tahlil qilishdan iborat edi. Bunday tadqiqot strategiyasi jarayonning subyektiv tomoniga e'tiborni kuchaytirishga imkon berdi; polyaklarning AQShga migratsiya qilinishiga nima majbur qildi? Qarorlarni qabul qilish jarayoni qay tarzda o'tdi? Ularning qiymat tizimiga qanday ta'sir qildi va bu qay tarzda aks etdi? Natijada tadqiqotchilar amaliy xulosalargina chiqarib qolmay, balki migrantlarning umumlashtirilgan adabtatsiya tartibi konsepsiyasini yaratdilar; yangi sotsial sharoitda ongning o'zgarishi; oila va jamoa bog'lanishlarining uzilishi; innovatsion jarayonlardagi me'yor va chetga og'ishlar; guruh tomonidan nazoratning buzilish natijasi bilan jinlar munosabatining o'zgarishi sotsial baxt konsepsiyasini tashkil qilishini aniqladilar. Lekin, asosiysi – bu migratsiyaning obyektiv omillari ta'siri ularning

subyektiv omillariga ta'siri, ularning subyektiv talqin qilish orqali voq'ealarning ayrim qatnashchilarining borliqni o'z tushunchalari bo'yicha ko'rib chiqildi [8, – B.334].

Sifatli usullarning imkoniyatlari keskin sotsial sharoitlar o'zgarishi paytidagi obyektiv va subyektiv hollarini o'z tajribamizda ko'rishimiz mumkin. Masalan o'tish davrida aholining bir tizimdan ikkinchisiga moslashish strategiyasi. Mikrosubyektiv omil ayniqsa oilada uning a'zolari orzu-umidlari borasidagi nizolar orqali sotsial ahamiyatga ega bo'lgan oqibatlariga olib keladi; moslashish strategiyasining ma'lum bir turiga ega bo'ldi. Bunday ikki xil palliativ strategiya (ikki karra bandlik) sotsiologiyada keng tarqalgan. Shunday qilib sifatli yondashishning umumiy strategiyasi ochiq qidirish, strukturalashtirilmagan muammoli holatlarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotchining diqqati ayrim subyektlarni yiriklashtirib ko'rib chiqishga qaratilgan. Sifatli usullardan foydalanish, ba'zida tadqiqotchining diqqat markazida ayrim sotsial obyektning o'ziga xosliklarini o'rganish, voq'eaning umumiy sur'ati yoki hodisaning umumiy tarkibiy birligida, obyektiv va subyektiv omillarning hamkorligida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sifatli tadqiqotlar yangi hodisalarni va ommaviy keng tarqalgan, ayniqsa keskin sotsial o'zgarishlar sharoitidagi jarayonlarni o'rganish imkonini beradi.

Sifatli paradigmani yuqorida ta'kidlaganimizdek, gumanistik sotsiologiya, deb ham ataydilar yoki interpretativ yoxud tushunadigan berilgan yo'nalishning asosida yotgan nazariy konsepsiyalarga asoslanib strukturalizmga nisbatan bu yerda individlari jtimoiy harakat agentlari, deb tushuniladi. Ular sotsial dunyoning mahsuloti yoki qurboni emas, balki o'ylayotgan, his qilayotgan, harakat qilayotgan subyektlar bo'lib, atrofdagi dunyoni yaratishga qatnashadilar. O'zining va boshqalarning tartibiga o'zining ma'nosini va ahamiyatini beradilar. Katta sotsial tizimlar bunday qarashda munosabatlarning murakkab jarayonlar natijasida paydo bo'lishi, undagi umumiy ma'nolar va ahamiyatlar ma'lum darajada ijtimoiy munosabatlar qatnashchilarining hammasi tomonidan belgilanadi va ma'qullanadi. Misol uchun hammaga tushunarli nikoh marosimida aytilgan "Ha" so'zi. Bu so'z hamma harakatlarni mujassamlashtirib, barcha qatnashchilarga bir ma'noda tushuniladi. Shuning uchun sifatli sotsiologiyani subyektiv sotsiologiya deb ham ataydilar.

Umuman mikrosotsiologiyani fragmentar sotsiologiya, deb atash mumkin. Chunki, bunday yondashish natijasida diqqat aniq munosabatlarning mikro tahliliga qaratiladi. Fragmentar sotsiologiya, degan tushuncha – bu jamiyatni ko'pgina fragmentlardan to'qilgan mozaik matoday tushunish imkonini beradi.

Shunday qilib, metodologiya nuqtai-nazaridan sifatli yoki gumanistik sotsiologiya o'zining mohiyati bilan mikrosotsiologiyadir. Tadqiqotchi o'zining diqqatini sotsial harakat agenti bo'lgan subyektga qaratadi. Bunda avvalambor shaxsiy, har kungi tajribasi, boshqalar bilan bo'lgan munosabat, so'zlar bilan aytilgan fikrlarga o'z hayoti haqidagi hikoyalariga murojaat qilinadi. Interaktiv ma'lumotlarni tahlil qilib (so'zlar, imo-ishoralar, kommunikativ belgilarni) sotsiolog kishilarning sotsial turmushining alohida shaklini tushunib oladi va izohlab beradi: u o'zining kuzatishlarini umumlashtiribgina qolmay, uni atamalar tiliga aylantiradi, kuzatilayotgan sotsial borliqning berilgan jihatlarini nazariy izohlab berish uchun o'ziga xos yondashuv bilan tadqiqotlar o'tkazadi.

O'zbekiston sharoitida sifatli tadqiqotlar o'tkazishning zaruriyati shundaki, bunda avvalambor mamlakat aholisi globalizatsion jarayonlarda faol qatnashmoqda. Shuningdek, bir tomondan fuqarolik jamiyati sharoitida va ikkinchi tomondan axborotlashgan dunyoning bir qismi sifatida mamlakat aholisining har bir vakilini fikr-mulohazasi istalgan paytda qaysidir bir mavzuning dolzarb nuqtasi bo'lib chiqishi mumkin.

Mutaxassislar jamlangan mazkur yig'ilishda e'tiborni bugungi sotsiumning talqinini beruvchi sotsiologik tasavvurga jalb etmoqchiman. Kimlardir axborotlar dunyosida u bilan barobar faoliyat yuritayotgan bo'lsa, kimlardir uni quvib o'tishga, yana kimlardir esa ichki qo'rquv tufayli uni o'zidan uzoqlashtirishga, yoki shaxsning o'zi undan qochishga harakat qilayotganligi ham sir emas. Shu o'rinda axborotlar olamidagi voqeliklar nigohida quyidagi sotsiologik misralarga diqqatlaringizni tortmoqchiman. Ushbu misralarni agar ta'bir joiz bo'lsa ta'kidlash mumkinki, aynan zamonaviy sotsiologiyaning fikr-mulohazasi sifatida talqin qilish mumkin.

Biz zamonaviy sotsiologiyaning asosiy masalalaridan biriga aylangan ijtimoiy dramani hozirgi kunda har daqiqada his etib yashayapmiz. Mustaqillikning o'tgan yillari mobaynida ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida muxim o'rin tutgan "davlat-jamiyat-shaxs" tizimi ma'ruza matnlari va amaliyot darslarida hali hamon o'z o'rnini saqlab turibdi. Vaholanki, ijtimoiy hayot allaqachon "Globalizatsiya-internet-jamiyat-davlat-oila-shaxs" tizimiga o'tib ulgurdi. E'tibor bergan bo'lsangiz biz o'z qarashlarimizda "jamiyat" tuzilishini oldinga o'ringa chiqarib, tahlili va bayonini berdik.

Mamlakat hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosatga diqqat bilan razm solgan har bir tadqiqotchi, uning faoliyatida aynan shu tizimning ishlayotganligini kuzatadi. Xususan, ijtimoiy sohada. Aslida, bugungi ilg'or jamiyatlarning barchasini ish uslubi shuning ustiga qurilgan. Ta'bir joiz bo'lsa, uni "ijtimoiy formula" sifatida ilgari sursak, uning mavjudligiga e'tiroz qilgan, yoki an'anaviylikka tish-tironog'i bilan yopishib olsak, hohlaymizmi yoki yo'q, shu yerda "ijtimoiy drama" boshlanadi. Shuning uchun, biz belgilangan imkoniyatdan kelib chiqib, bugungi konferensiyada ishtirok etayotgan barcha hamkasblarga mazkur ko'tarilayotgan masalaga nisbatan yana bir bor ilmiy yoki sotsiologik mushohada bilan fikr bildirishlaringizni so'rayman.

Sohamiz ijtimoiy soha bilan bog'liq bo'lganligi uchun, hech bir boshqa ijtimoiy fanlarni kamsitmagan holda, sotsiolog pozitsiyasidan turib ushbu sohaning ayni damda zamonaviy O'zbekistondagi o'rnining qanchalik ahamiyatli ekanligi tomonlariga qisqacha o'z fikrlarimizni bildirib o'tmoqchimiz. O'ylaymizki, unga oid baxs-munozaralar barcha ijtimoiy fan vakillari, birinchi navbatda O'zbekiston Sotsiologlari Assotsiatsiyasi, sotsiologlarning turli davra suhbatlari, ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlarida bo'ladigan doimiy ilmiy baxs-munozaralar, seminar, anjuman hamda davra suhbatlarida alohida ko'rib chiqilib, o'zining ijobiy natijasiga erishadi.

XX asrning atoqli sotsiologi Karl Manxaym tomonidan fanga kiritilgan "Sotsiologik tasavvur"ning asosiy tezisi quyidagicha yakun topgan: "Har bir sotsiolog o'z metodologiyasini yozishga harakat qiladi" [9, – B.572-671]. Ammo yozilgan har qanday metodologiya nazariyaga aylanmasligi mumkin. Sotsiologik tasavvurga ko'ra har qanday hodisani faqatgina tanqidiy mushohada bilan tahlil eta oladigan intellektual aql uni amalga oshirishi mumkin. An'anaviy jamiyat kishisi ko'p holatlarda tanqidga tayyor bo'lmasligi qator akademik manbalarda bayon etilgan. Shuningdek, an'anaviy intellektual sohibi ham istiqbolga yo'naltirilgan tanqidiy mushohadaga hamma vaqt tayyor bo'lmaydi. Mills, sotsiolog sifatida ta'kidlaydi: jamiyatda umummilliy muammolar va uning yechimidan tashqari – konkret, aniq kishi (shaxs) ham borligini unutmaslik lozim. Chunki, uning muammosi ijtimoiy masalalarni qamrab oladi. Axborotlashgan jamiyatda esa aqlga qaratilgan ijtimoiy masalalar chigallashib bormoqdaki, aniq bir kishi timsolida uni faqat sotsiologik nuqtai nazardan tahlil etish, yechimini topish mumkin. An'anaviy mushohada bilan katta tezlikda ketayotgan axborotlashgan jamiyatdagi intellektual salohiyatga ta'sir o'tkazish yoki bosim qilish "ijtimoiy drama"ni keltirib chiqaradi.

Jamiyat mavjud ekan va u axborotlar makoniga uyg'unlashib ketar ekan, endi undagi ijtimoiy drama oddiy holatga aylanadi. Ijtimoiy dramani ijtimoiy hayotda komediyaga ham aylantirish mumkin, tragediyaga ham. Ijtimoiy xodim qaysi biri afzal, degan savolga javob qidirishi kerak emas, chunki u qanday yondashuv va talqinga bog'liq. Ijtimoiy soha vakili faqat vujudga kelishi mumkin bo'lgan hodisani oldindan bildirishi, uni imkoni bo'lmaganda, uning ichida turib yoki yashab, hodisani yumshatishi yoki qiziqarli voqelikka aylantirishi mumkin. Ko'pincha an'anaviy tafakkurda "post faktum" hodisasi begona emasligi ta'kidlanadi. Ya'ni, sodir bo'layotgan voqelikni tartibsiz amalga oshirish, agar o'xshamay qolsa aybdor qidirish, kimgadir yukni ag'darib qo'yishgacha boriladi. Bu esa tabiiyki ijtimoiy drama bilan tugaydi. Shuning uchun ham jamiyatning har bir bo'g'inida ijtimoiy soxa vakilining xizmati sezilib turishi kerak bo'ladi.

XX asrning 60-yillarigacha sotsiologiya sohasi taraqqiy etgan mamlakatlarning ushbu yo'nalishga oid nufuzli ilmiy jurnallaridagi tahliliy maqolalarning qariyb 90% miqdoriy tadqiqot usullari natijalariga tayanilib yozilganligi e'tirof etiladi [10, – B.79]. Ekspert mutaxassislar miqdoriy usulni "qattiq" ("keskin") tahlil, sifatli ko'rinishini esa "yumshoq" ("mayin") atamallari bilan empirik sotsiologiyada qo'llay boshladilar. Makrosotsiologik jarayonlarni tadqiq etishni o'zida mujassamlashtirgan miqdoriy tadqiqot usullarining nazariy-metodologik asosi birlamchi holatda jamiyatni umumiy tashkillashtirilgan bir butun tizim sifatida olib qarasa, ikkilamchi ko'rinishda

mazkur umumiylikning isbotlangan nazariyasini yaratish uchun obyektiv vo'qelikni ratsional tartibga solish va mantiqiy isbotlash taklifini ilgari surardi. Sifatli usullarni sotsiologlar mikrosotsiologiyaga qiyos qiladilar va uning natijalari aksariyat holatda subyektiv mazmun kasb etishini yashirib o'tmaydilar. Agar makrosotsiologiya yuqoridan turib real hodisalarni o'rganishni maqsad qilib belgilagan bo'lsa, mikrosotsiologiya quyidan yuqoriga qarab mavjud voqe'likni tadqiq etadi. Xususan, oilaviy munosabatlar doirasida makrosotsiologiya (miqdoriy tadqiqotlar) "inson mohiyati"ni sotsial hodisa va jarayon sifatida o'rgansa, mikrosotsiologiya (sifatli tadqiqotlar) global muammolarni ratsional his qilishdan chegaralangan va lokal (belgilangan joyga oid) jamoaviy turmush tarziga ega ozchilikning turmush tarzi va ularning kundalik hayotlaridagi sotsial amaliyotni tadqiq etishni ilmiy vazifa qilib belgilaydi [11, – B.93-94].

Ma'lumki sotsiologiyada oila sotsial institut sifatida olib o'rganiladi. Bunda oilaning mavjud jamiyat bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishuvi qanday kechadi va unda bajaradigan sotsial vazifalari nimalarda o'z ifodasini topishi kerakligiga javob axtariladi. Ammo mikro ahamiyatga ega holatlar, jumladan, kecha ish joyi bor, ammo bugun korxonaning tugatilishi yoki qisqartirishlar tufayli ishsiz maqomiga ega ota, 40-45 yoshligida nafaqaga chiqarilgan harbiylarning, yoki 30-35 yoshligida karerasi tugagan sportchilarning oddiy fuqarolik sharoitidagi oilaviy hayoti, ijtimoiy hayotda murakkab an'analar domiga bardosh berib kun kechirayotgan "joyi chiqmagan" yoki bir nechta farzandni katta qilayotgan yolg'iz ayollar kundalik turmush tarzi, uzoq yillardan beri yotoqchona yoki kvartirada ijarada turadigan ko'pbolalik oilaning sotsial ahvoli, ota-onasi migratsiya jarayonlarida qatnashayotgan, farzandlari esa bobo-buvisi, qarindosh-urug'larining qaramog'ida qolib ketayotgan bolalarning tarbiyasi va boshqa shu kabi mavzularga oid alohida tadqiqot ishlariga u qadar ko'p ahamiyat berilmaydi. Buning sabablaridan biri sifatida aksariyat tadqiqotchilarning o'z izlanishlarida imkon qadar miqdoriy tadqiqot usullariga bog'lanib qolyotganlarini ta'kidlash mumkin.

Ta'kidlash joiz, makrosotsiologik tadqiqotlarda to'plangan ma'lumotlarni tushuntirish va tasvirlash uchun sotsial bilimlar zarur bo'lsa, ma'lum bir kishilarning kundalik hayotidagi tajriba, hayajon va ruhiy ehtirolarini tushunish uchun ilmiy talqin va prognoz xulosalarini chiqarish ehtimolligini beradigan amaliy bilimlar ko'nikmasi shakllantiriladi. Zamonaviy O'zbekiston sharoitida inson omili masalasiga katta e'tibor qaratilar ekan, bunda turli sotsial guruhlarining amaliy hayot tajribasini sotsiologik tadqiq etish uchun sifatli tadqiqotlar usullarini qo'llash vaqti allaqachon yetib keldi, deb hisoblash mumkin.

Shaxsning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi va o'zga madaniyatlar bilan to'qnashuv jarayonida paydo bo'ladigan hulq-atvor ko'rsatkichi, ong va tafakkurdagi sotsial og'ishlar mavjud oilaviy munosabatlar tizimidagi vorislikni qanday o'zgartirib borganini kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Sotsiologiyadan ma'lumki davriy o'zgarishlar vaqtida shaxsning hayotida "sotsial inqiroz"ni kuchaytiradi. Buning uchun yashash joyini o'zgartirish har doim ham shart emas. Ijtimoiy hayotdagi sotsial agentlar, masalan, INTERNET, tanish-bilish migrantlardan olinayotgan ma'lumotlar, turistlar, televidenie va boshqa OAVda beriladigan kundalik yangiliklar har qanday an'anaviy oilaviy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida quyidagilarni ilgari suramiz:

✓ O'zbekiston aholisining global tendensiyalarda yanada faollashuvi, yoshlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini muttasil oshib borishi asrlar mobaynida shakllangan mavjud oilaviy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

✓ Iqtisodiy, sotsial, demografik, huquqiy va ma'naviy islohotlar zamonaviy yoshlarda jamoaviylik ruhini saqlab qolgani holda, bozor munosabatlari ta'siri natijasida tafakkurda individualizm kayfiyatini ham shakllantirib boradi. Bu holat, tabiiyki istiqboldagi oilaviy munosabatlar tizimiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

✓ Oilaviy munosabatlar tizimining avlodlar o'rtasidagi vorislikni qanchalik ta'minlayotganligini kuzatib borish uchun sifatli sotsiologik tadqiqotlarga asoslangan ilmiy izlanishlar sonini oshirib borish.

✓ Mamlakat miqyosida mustaqil yoki davlat tasarrufidagi "*Sifatli sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish Markazi*"ni shakllantirish foydadan holi bo'lmaydi.

✓ O‘zbekistonning demografik, hududiy va mintaqaviy joylashuvi, turmush tarzida an’anaviylik va agrar sektorning ustuvorlik qilishini inobatga olib axborotlashgan jamiyat tizimida barcha soha va tarmoqlarda sotsiologiyani joriy etilishi globallashuv-internet-jamiyat-davlat-shaxs bog‘liqligini ta’minlashda samarali yordam beradi.

✓ Xalq ta’limi vazirligi tasarrufida jamiyatshunoslik fanlari o‘qitilishini chuqurlashtirish, xalqaro tajribadan kelib chiqib 5-11-sinflarda sotsial bilimlar o‘quv kursini joriy etish va tizimlashtirilgan holda yo‘lga qo‘yilishi o‘zgaruvchan jamiyatda faqat foydali natijalarni beradi.

✓ Mahalla vazirligi va uning tarkibidagi o‘zini o‘zi boshqaruv organlarining keng jamoatchilik bilan ishlashini e’tiborga olib, uning shtatlar birligida sotsiolog mutaxassisligini kiritilishi.

✓ Oliy ta’lim tizimida tarmoqlar asosida sotsiologiya fanini qayta tiklanishi juda muxim. Axborotlashgan jamiyatning eng faol ishtirokchilari talabalar ekanligini inobatga olsak, ong va tafakkurda paydo bo‘ladigan ko‘plab savollarga sotsiologik bilimlar bilan mulohaza yuritish oson kechadi.

✓ Biz hamma vaqt tarixdan xulosa chiqarishimiz kerak. Zero, tarixga loqayd munosabatda bo‘lsak, u takrorlanishi mumkin. Hushyor turish, ong va tafakkurni chuqur tahliliy mushohadaga yo‘naltirish va loqaydlikka mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik lozim. Bu zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan sotsiologiyaning bosh masalasi sifatida muhimdir.

#### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/5841063>).
2. Вебер М. Город // Вебер М. Избранное. Образ общества. – М.: Юрист, 1994. – С. 14.
3. Кокурин Д.И., Назин К.Н. Формирование и реализация инфраструктурного потенциала экономики России. – М.: Транслит, 2011. – С. 58;
4. Семенова В.В. Качественные методы: введение в гуманистическую социологию. – М.: Добросвет, 1998. – С. 3-4.
5. Штейнберг И., Шанин Т., Ковалев Е., Левинсон А. Качественные методы. Полевые социологические исследования. – СПб.: Алетея, 2009. – С. 52.
6. Страусс А. Основы качественного исследования. Обоснованная теория. Процедуры и техники. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 244.
7. Девятко И.Ф. Методы социологического исследования. – Екатеринбург, Изд-во Урал. ун-та, 1998. – С. 91.
8. Томас У., Знанецкий Ф. Методологические заметки. – М., 1934. – С. 334.
9. Манхейм К. Консервативная мысль // Диагноз нашего времени. – М., 1994. – С.572-671.
10. Семенова В.В. Качественные методы: введение в гуманистическую социологию. – М.: Добросвет, 1998. – С. 79.
11. Каланов К.К. Муқаддас жой ва зиёратгоҳларнинг ижтимоий-маданий хусусиятлари [MATH]: Монография / К.Каланов – Тошкент: “KALEON PRESS” нашриёти, 2023. – Б. 93-94.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 7, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000